



2020 yil avgust oyi holatiga ko'ra

Yollanib ishlash yoki Yevropa Ittifoqining Moviy kartasi (Blaue Karte/EU) bo'yicha viza olish uchun kerakli hujjatlar haqida eslatma

Umumiy eslatma:

- Barcha arizachilar arizalarini **shaxsan** topshirishlari shart. **Hujjat topshirish uchun qabulga yozilish faqat internetda, elchixonaning qabulga ro'yxatga olish tizimi orqali amalga oshiriladi.**
- Viza arizasi qaror qabul qilish maqsadida **Germaniyadagi xorijliklar masalalari bo'yicha mas'ul idora (Ausländerbehörde)** ga yuboriladi. Shu sababdan yashash ko'zda tutilayotgan **manzil** (ko'cha, pochta indeksi va joy nomi) ariza blankida **to'liq** ko'rsatilishi lozim. Agar Siz yakuniy manzil haqida hali ma'lumotga ega bo'lmasangiz, **ish beruvchingizning aniq manzili va murojaat manbaalarini** qayd etishingizni so'raymiz. Germaniya hududiga kirib kelgandan so'ng, bu haqda yashash joyingizdagi xorijiy fuqarolar ishlari bo'yicha ma'sul idoraga xabar qilishingiz lozim. Ushbu idora Germaniyada qolishingiz bo'yicha yakunlovchi qaror qabul qiladi.
- Bu viza Sizga Germaniyada **faqat arizangizda ko'rsatilgan ish faoliyatini** olib borish huquqini berishini ham inobatga olishingizni so'raymiz.
- Arizangiz borasida ijobiy qaror qabul qilinsa, elchixona xodimlari Siz bilan bog'lanadi. Rad javoblari faqat (elektron) pochta orqali yuboriladi yoki arizachi tomonidan shaxsan olib ketilishi mumkin.
- Hujjatlarni **ko'rib chiqish muddati 6-8 haftani** tashkil etadi va ba'zi xollarda bundan farqlanishi mumkin.
- **Viza badali 75 yevroni** tashkil etadi va to'lov ariza topshirilayotganda **faqat o'zbek so'mida** (amaldagi kurs bo'yicha) amalga oshiriladi. Kupyuralar 2001 yildan eski bo'lmasligi, yaxshi holatda, muhr va yozuvlarsiz bo'lishi shart



Ariza topshirish uchun quyidagi hujjatlar talab qilinadi:

Eslatma: arizaga taaluqli hujjatlarning **DIN A4 formatidagi** nusxalarini quyidagi tartibda **sahifalarini biriktirmagan xolda ikkita to'liq to'plamga** ajrating. Uchinchi to'plam huddi shu tartibda, hujjatlarning aslidan iborat bo'lishi lozim. Hujjatlarning asli viza bo'limi tomonidan Sizga qaytariladi.

- Nemis tilida batafsil to'ldirilgan va imzolangan 2 ta viza ariza blanki hamda 3 dona biometrik fotosurat (2ta fotosurat ariza blankiga yelimgan bo'lishi kerak).** Blankni elchixonaning internetdagi www.taschkent.diplo.de web-sahifasidan olishingiz mumkin.
- Germaniya Federativ Respublikasi hududida istiqomat qilish shartlari haqidagi qonunning § 54, 2 abzatsi, 8 punkti hamda §53 ga muvofiq **imzolangan izoh**
- kamida bir yil amal qilish muddatiga ega bo'lgan pasportingiz** va uning shaxsiy ma'lumotlar kiritilgan sahifasidan nusxa
- Aniq ish joyi taklif etilganligini tasdiqlovchi hujjat. Kasb bo'yicha ishlash uchun ruxsatnoma (ZAV)** bo'lsa, uning berilishi kafillangan hujjat taqdim etilishi lozim
- Germaniya Federativ Respublikasida doimiy bo'lish vaqtida amal qiladigan tibbiy sug'urta polisi (ariza bo'yicha qarorni olishdan oldin taqdim etiladi).**
- Kasbiy faoliyat aks ettirilgan **tarjimai hol**, kasbiy ma'lumot haqidagi hujjatlar (tavsiyanomalar, diplomlar, mehnat daftarchasi va boshqalar) va ularning nemis tiliga notarial tasdiqlangan tarjimasi.

Agar Siz **Yevropa Ittifoqining Moviy Kartasi** (Blaue Karte/EU)ga ariza topshmoqchi bo'lsangiz, bu haqda [bu yerdan](#) qo'shimcha ma'lumot olishingiz mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan hujjatlarga qo'shimcha tarzda **Yevropa Ittifoqining Moviy Kartasi** (Blaue Karte/EU)ga ariza topshirish uchun quyidagi hujjatlar **asli** hamda ulardan **DIN A4 formatdagi ikkittadan nusxa** talab etiladi:

- Oliy ma'lumot haqida Germaniya oliy o'quv yurti diplomi yoki Germaniyada tan olingan xorijiy diplom (Sizning xorijiy diplomingiz Germaniyaning qaysi diplomiga mos kelishini www.anabin.de web-sahifasidan bilib olishingiz mumkin)
- yillik ish haqi chegirmalarsiz 47.600 yevro=** (oyiga 3.967 yevro) ni tashkil etgan va Germaniyadagi ish beruvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi yoki ish beruvchining ishga joylashtirish haqida majburiyati (tabiatshunos, matematik, muhandis, shifokor yoki axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassis sifatida: yiliga 37.128 yevro [oyiga 3094 yevro]). Agar nemis tilini bilmasangiz, ish tili bo'lgan boshqa xorijiy tilni (masalan, ingliz tili) bilishingiz haqida hujjat taqdim etilishi lozim.
- Muhandislik yoki tibbiyot kabi maxsus ruxsatnoma asosida olib boriladigan kasblarda faoliyat uchun beriladigan hujjat mavjudligi yoki uning berilishi Yevropa Ittifoqining Moviy Karta (Blaue Karte/EU)si berilishidan oldin tasdiqlanishi lozim.